

## AKSIYA O'TKAZILISHI QOIDALARI: «TOPSHIRIQ BAJARING VA APS OLING»

2022-yil «03» yanvar.

1. Rag'batlantiruvchi aksiyaning nomi: «Topshiriq bajaring va APS oling» (keyingi o'rinlarda Aksiya deb yuritiladi).
2. Ushbu Aksiya A-pay elektron pul Tizimida Aksiyalarni o'tkazish Qoidalariga majburiy Ilova hisoblanadi.
3. Aksiya tashkilotchisi: «CENTER FOR DIGITAL TECHNOLOGY AND INNOVATION» MCHJ - «A-Pay» Elektron pul Tizimi Operatori .
4. Aksiya o'tkaziladigan hudud: Aksiya O'zbekiston Respublikasi hududida o'tkaziladi.
5. Aksiyaning amal qilish muddati: 2022-yil «03» yanvar dan Tashkilotchi tomonidan bekor qilingunga qadar cheksiz muddatgacha.
6. Aksiya ishtirokchilari: Tizim mijozlari (aniqlangan va aniqlanmagan) – elektron pullardan foydalangan holda to'lovlar, pul o'tkazmalari va boshqa operatsiyalarni amalga oshirish maqsadida «A-Pay» Elektron pul Tizimidan foydalanuvchi jismoniy shaxslar.
7. Ishtirokchilarni Aksiya shartlaridan xabardor qilib turish tegishli ma'lumotlarni Tashkilotchining [https:// www.a-pay.uz](https://www.a-pay.uz) saytida va (yoki) mobil iovasida joylashtirish orqali amalga oshiriladi.
8. Aksiyada ishtirok etish tartibi: Aksiyada ishtirok etish uchun Ishtirokchi mobil ilovada “Bonuslar ishlab olish” bo'limida e'lon qilinadigan haftada bitta topshiriqni bajarishi kerak.
9. Agar ushbu Qoidalarning 8-bandida nazarda tutilgan harakatlardan birortasi bajarilmasa, potensial Ishtirokchi Aksiya shartlarini bajarmagan deb hisoblanadi va shunga mos ravishda Aksiya Ishtirokchisi maqomiga ega bo'lmaydi.
10. Topshiriq shartlarini bajargan shaxs Aksiya Ishtirokchisi maqomiga ega bo'ladi va Aksiya Tashkilotchidan Ishtirokchilar «APS bonus» Bonus dasturi Qoidalari talablariga muvofiq foydalanilganda, Mukofotlar olish huquqini beruvchi, quyidagi o'lchamlarda APS olish huquqiga ega bo'ladilar:
  - "HUMO" bank kartasini ulash - 5.000 (besh ming) APS;
  - Elektron hamyonni 100.000 (yuz ming) elektron pul bilan to'ldirish - 10.000 (o'n ming) APS;
  - Mobil aloqa uchun to'lov (5 ta uyali raqamdan ko'p bo'lmagan) - 1.000 (bir ming) APS;
  - Kommunal to'lovlar (5 tadan ko'p bo'lmagan) - 1.000 (bir ming) APS;
  - 100.000 (yuz ming) elektron pulni “A-pay” Elektron pul Tizimida o'tkazganlik uchun – 10.000 (o'n ming) APS;
11. Tashkilotchiga Ishtirokchini Rag'batlantirishga da'vogarlar ro'yxatidan o'chirilishiga olib keluvchi faktlar haqida ma'lum bo'lgan taqdirda (“APS Bonus” Bonus dasturi shartlariga, “A-Pay” Elektron pul Tizimida Aksiyalarni o'tkazish qoidalariga rioya qilmaslik holatlari, firibgarlik, g'irromchilik qilish, o'zi



haqida noto'g'ri ma'lumotlarni taqdim etish, akkauntlarni ommaviy yuborish orqali bonuslar olishda suiiste'mol qilish, telefon egasining roziligisiz telefon raqamlariga kirish va ro'yxatdan o'tish, ma'lumotlarning yetishmasligi, tizimdagi faollikda aks etuvchi shubhali ro'yxatdan o'tishlar va boshqalar), bunday shaxslar Aksiya Ishtirokchilari ro'yxatidan chiqariladi va APS olish va Rag'batlantirish huquqidan mahrum bo'ladi, ilgari olingan APS bekor qilinadi.

12. Tashkilotchi o'z xohishiga ko'ra, bir tomonlama tartibda, istalgan vaqtda, oldindan ogohlantirmasdan va sabablarini tushuntirmasdan, Aksiyani yakunlash yoki vaqtincha to'xtatib turish, shuningdek, ushbu Qoidalarga har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish huquqini o'zida saqlab qoladi. Aksiyaning muddatidan oldin to'xtatilishi, to'xtatib turilishi, o'zgartirish va qo'shimchalarning kiritilishi da'volar uchun asos bo'la olmaydi.
13. Aksiya muddatidan oldin to'xtatilgan taqdirda Tashkilotchi o'zining rasmiy veb-saytida <https://www.a-pay.uz> va (yoki) mobil Ilovada bu haqda tegishli ma'lumotlarni joylashtirish orqali amaldagi va (yoki) potentsial Ishtirokchilarni ochiq xabardor qilish majburiyatini oladi.
14. Tashkilotchi ushbu Qoidalardan, «A-Pay» Elektron pul Tizimida Aksiyalarni o'tkazish Qoidalaridan, «APS bonus» Bonus dasturi Qoidalaridan chetga chiqqantushunmovchiliklar, noto'g'ri talqinlar, taxminlar yoki fikrlardan kelib chiqadigan har qanday da'volar yoki zararlar uchun javobgar emas.
15. Savollar, tushunmovchiliklar yoki boshqa nizolar yuzaga kelsa, Aksiya Ishtirokchisi Tashkilotchiga murojaat qilib, ularga aniqlik kiritish/hal qilish uchun barcha choralarni ko'rish shart.
16. Tashkilotchining majburiyatlarini bajarishiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi fors-major holatlari, jumladan, suv toshqini, yong'in, ish tashlashlar, zilzilalar yoki boshqa tabiiy omillar; ommaviy epidemiyalar; davlat yoki huquqni muhofaza qilish organlarining buyruqlari va Tashkilotchiga bog'liq bo'lmagan boshqa ob'ektiv sabablar yuzaga kelgan taqdirda Tashkilotchi Aksiya Ishtirokchilari oldida javobgar bo'lmaydi.
17. Mazkur Qoidalarda nazarda tutilgan harakatlarni amalga oshirish fakti Aksiya Ishtirokchisining o'z shaxsiy ma'lumotlariga ishlov berishga, elektron pochta (shaxsiy kabinet, telefon, shuningdek, ijtimoiy tarmoqlar orqali va boshqalar) orqali Tashkilotchining ushbu Aksiyalariga va boshqa Aksiyalariga oid reklama va xatlarini olishga roziligini bildiradi. Aksiyaning har bir Ishtirokchisi o'zining fotosurati, video tasvirini, u bilan suhbatni Tashkilotchining veb-saytida va (yoki) mobil Ilovasida, reklama materiallarida, ijtimoiy tarmoq sahifalarida joylashtirish va joylashtirishga roziligini beradi. Ishtirokchining roziligi Tashkilotchiga cheklanmagan muddatga va bu uchun hech qanday mukofot to'lanmasdan beriladi.
18. Ishtirokchi tomonidan ushbu Qoidalarda ko'rsatilgan harakatlarning bajarilishi Ishtirokchining «APS bonus» Bonus dasturi Qoidalariga, Oferta hisoblanmish «A-Pay» Elektron pul Tizimida Aksiyalarni o'tkazish Qoidalariga to'liq va so'zsiz roziligini bildiradi.
19. Ushbu Qoidalar bilan tartibga solinmagan barcha boshqa holatlarga «A-Pay» Elektron pul Tizimida Aksiyalarni o'tkazish Qoidalari, «APS bonus» Bonus dasturi Qoidalari qo'llaniladi.

